

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov</b> Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
	PEDAGOGIKA
<b>B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov</b> Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
<b>Ким Владимир</b> Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов .....	15
<b>А.Н.Амонов</b> Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста.....	20
<b>N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
<b>O.Q.Xasanova</b> Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati .....	28
<b>M.E.Abdullayev</b> O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarining tarbiyaviy imkoniyatlari .....	34
<b>B.Sh.Turg'unboyev</b> Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar .....	37
<b>X.A.Kadirova</b> Tibbiyot oliygohlarida tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
<b>S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov</b> Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori .....	49
<b>D.K.Karimov</b> Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
<b>K.F.Nazarova</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
<b>J.Dj.Sultanov</b> Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
<b>X.X.Xasanbayev</b> Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
<b>O'.R.Maxmudov</b> O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
<b>I.Y.Masharipov</b> Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili.....	71
<b>F.O.Qo'ysinova</b> Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi .....	75
<b>R.X.Ibragimov</b> Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish .....	78
<b>A.Tuychiyev</b> Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

**HARBIY-SIYOSIY SOHADA AXBOROT TAHDIDLARINING OLDINI OLIISH  
MASALALARI****ВОПРОСЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ УГРОЗЫ В ВОЕННОЙ И  
ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ****ISSUES OF INFORMATION THREAT PREVENTION IN THE MILITARY AND POLITICAL  
SPHERE****Sultanov Javlon Djurayevich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasi mustaqil izlanuvchisi**Annotatsiya**

*Maqolada harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari tadqiq etilgan. Axborot makonida ro'y berayotgan salbiy tendensiyalar mamlakatlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi ilmiy asoslantirilgan.*

**Аннотация**

*В статье рассматривается предотвращение информационных угроз в военно-политической сфере. Научно доказано, что негативные тенденции, происходящие в информационном пространстве, вызывают серьезные проблемы в политической, экономической, социальной и других сферах стран.*

**Abstract**

*The article examines the prevention of information threats in the military-political sphere. It is scientifically proven that the negative trends occurring in the information space cause serious problems in the political, economic, social and other spheres of the countries.*

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot makonitizim, mafkuraviy jarayon, transformatsiya, tendensiya, globallashuv, jamiyat, mafkuralar almashinuvi.

**Ключевые слова:** информация, информационный меконитизм, идеологический процесс, трансформация, тенденция, глобализация, общество, обмен идеологиями.

**Key words:** information, information meconitism, ideological process, transformation, trend, globalization, society, exchange of ideologies.

**KIRISH**

Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi milliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim va ajralmas qismi bo'lib, davlat siyosatining birlamchi masalasiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta'minlash borasida davlat o'z vazifalarini amalga oshirish jarayonida axborot xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarni xolis va har tomonlama tahlil qiladi hamda buni ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Shuningdek, davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi (vakillik) va ijro organlarining O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish, ularni qaytarish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish ishlarini tashkil etadi. Ayni paytda, jamoat uyushmalarining jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar haqida aholiga obyektiv axborot berish, jamiyatni soxta va noto'g'ri axborotlardan himoya qilish borasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi hamda axborotni himoya qilish vositalarining ishlab chiqilishi, yaratilishi, rivojlantirilishi, qo'llanishi, eksport va import qilinishini ularni sertifikatlashtirish hamda litsenziyalash orqali nazorat qiladi [1]. Bulardan tashqari, davlat O'zbekiston Respublikasi hududida axborotlashtirish va axborotni himoya qilish vositalarini ishlab chiqaruvchilarga nisbatan zarur homiylik siyosatini amalga oshiradi, ichki bozorni sifatsiz axborotlashtirish vositalari va mahsulotlaridan himoyalash choralari ko'radi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga jahon axborot resurslari va tizimlariga kirishga ruxsat berilishiga ko'maklashadi. Davlat va nodavlat tashkilotlarning axborot xavfsizligi sohasidagi say-harakatlarini birlashtiradigan O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta'minlash dasturining ishlab chiqilishini tashkil etish, jahon axborot tarmoqlari va tizimlarining baynalmilallashuvi hamda jahon axborot hamjamiyatiga O'zbekistonning teng huquqli hamkorlik shartlariga qo'shilishiga imkoniyat yaratish ham davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash borasidagi vazifalari sirasiga kiradi.

### TAHLIL

Axborotni himoya qilish deganda: axborotning jismoniy butunligini ta'minlash, shu bilan birga axborot elementlarining buzilishi, yoki yo'q qilinishiga yo'l qo'ymaslik; axborotning butunligini saqlab qolgan holda, uni elementlarini qalbakilashtirishga (o'zgartirishga) yo'l qo'ymaslik; axborotni tegishli huquqlarga ega bo'lmagan shaxslar yoki jarayonlar orqali tarmoqdan ruxsat etilmagan holda olishga yo'l qo'ymaslik; egasi tomonidan berilayotgan (sotilayotgan) axborot va resurslar faqat tomonlar o'rtasida kelishilgan shartnomalar asosida qo'llanilishiga ishonish kabilar tushuniladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti ko'pgina mamlakatlarda sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfederal ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Kompyuter jinoyatchiligi rivojlangan davlatlar iqtisodining haqiqiy kushandasiga aylandi.

Mutaxassislar bu turdagi jinoyatlarning yuqori latentlikka egaligini ta'kidlashmoqda, ya'ni 85% holatda kompyuter jinoyatchiligi ochilmay qoladi. Holat yana shu bilan chuqurlashmoqdaki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zlari ham jinoyatchilarning e'tiboridagi obyektiga aylanib qolishmoqda. Shu sababli o'zlariga tegishli axborotni himoya qilish huquqni muhofaza qilish organlarining bugungi kundagi dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi qonunchilik, tashkiliy va dasturiy-texnik choralar yordamida yechimini topuvchi kompleks xarakterga ega. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

Axborotni muhofaza qilish axborotni ixtiyoriy ko'rinishda yo'qotishda (o'g'irlash, buzish, qalbakilashtirish) ko'riladigan zararning oldini olishni ta'minlashi lozim. Axborotni muhofaza qilish choralari axborot xavfsizligiga oid amaldagi qonun va meyoriy hujjatlar asosida va axborotdan foydalanuvchilarning manfaatlariga ko'ra tashkil etilishi zarur. Yuqori darajada axborotni muhofaza qilishni kafolatlash uchun muntazam ravishda murakkab ilmiy-texnik vazifalarni hal etish va himoya vositalarini takomillashtirish talab etiladi[3].

Ma'lumki, axborot xavfsizligi tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infratuzilmaning himoyalanganligini bildiradi.

Bunday ta'sirlar axborot sohasidagi munosabatlarga, jumladan, axborot egalarga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni qo'llab-quvvatlovchi infrastrukturaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Axborot xavfsizligi ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlaydigan uchta asosiy tamoyil (ma'lumotlar butunligi, axborotning konfederalligi va foydalanish huquqlariga ega barcha foydalanuvchilar axborotdan foydalana olishliklari) bilan bir qatorda ayrim faoliyat sohalari (huquqni muhofaza qilish organlari, mudofaa va maxsus tuzilmalar, bank va moliya institutlari, axborot tarmoqlari, davlat boshqaruvi tizimlari) ularda ko'riladigan masalalarning muhimligi va xarakteriga ko'ra, ularning axborot tizimlari faoliyati ishonchligiga nisbatan yuqori talablar va xavfsizlik bo'yicha maxsus choralar ko'rilishini talab etadi.

Zamonaviy sharoitda AKTning jinoiy, terroristik hamda harbiy-siyosiy maqsadlarni amalga oshirishda qo'llanilishi xalqaro xavfsizlikka tahdid va davlat siyosiy-ijtimoiy hayotining izdan chiqarishida muhim omil bo'lishi mumkin.

Respublikamizning murakkab tarkibli, ko'p sonli avtomatlashtirilgan axborot tizimli hamda axborot hajmi katta bo'lgan vazirliklari va davlat tashkilotlarida axborotni himoyalash uchun, himoyalashning majmualari tizimlari tashkil qilingan. Bu tizimlar axborot xavfsizligi masalasining faqat aloqa ta'minlanishiga tegishli qismini hal qiladi, ya'ni maxsus texnikalar ishlashi, maxfiy ma'lumotlarning uzatilishi va aloqa kanallari nazorati vazifalarini bajaradi. Bu tizimlardagi serverlar va ishchi stansiyalardagi ma'lumotlar himoyasi dasturiy vosita (masalan, Favqulodda vaziyatlar vazirligida Outpost Firewall Pro ver. 3.0.543.5722 dasturiy vositasi) yordamida va mavjud aloqa kanallarini o'z ichiga olmagan, lokal axborot tarmog'i boshqaruvi asosida hal qilingan. Amaliyot natijalaridan ma'lumki, tarmoqlarda xavfsizlikni ta'minlash uchun dasturiy vosita qo'llanilganligi, tizim xavfsizligining to'liq ta'minlanishiga kafolat bo'la olmaydi. Birinchidan, tizimda qo'llanilayotgan operatsion tizim hamda tarmoqdagi texnik vositalar xavfsizligini ta'minlash masalasini hal qilish, ikkinchidan, dasturiy vositani tizim xavfsizlik siyosati talablariga mos holda tanlash talab etiladi. Axborot kommunikatsiya, texnik-dasturiy va tarmoqlar xavfsizligini ta'minlovchi

vositalarni maxsus nazoratlardan o'tkazmasdan ichki tizimlarda qo'llash, axborot xavfsizligi ta'minlanishi muammosini hal qilishni yanada murakkablashtiradi.

Bugungi kunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida axborot resurslarini bilan ishlashni tashkil etishda avtomatlashtirilgan axborot tizimlari keng joriy etilmoqda.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tashkiliy infratuzilmalarida kafolatli axborot xavfsizligini ta'minlash rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga kompyuter tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash rejasini ishlab chiqish, ushbu ikki rejani birlashtirish talab etiladi[4].

### XULOSA

**Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy sohalarda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish talab etiladi:**

–himoyalananayotgan axborotdagi maxfiy ko'rinishdagi mavjud ma'lumotlarni uzatishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish;

–axborot xavfsizligi sohasidagi huquqiy bazaning barqarorligini ta'minlash uchun, unga xalqaro standartlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash imkonini beruvchi mexanizm ishlab chiqish va funksional standartlash usullarini tatbiq qilish;

–respublika miqyosidagi axborot xavfsizligi ta'minlanishi sohasidagi barcha savollarga to'liq javob beradigan meyoriy-huquqiy, boshqaruv va uslubiy hujjatlarining to'liq majmuini yaratish;

–axborot xavfsizligi ta'minlanishiga mas'ul boshqaruv tizimini va javobgar shaxsni aniqlash, sohadagi tashkilot va markazlar faoliyatini tartibga solish;

–axborotni himoyalash bo'yicha yuzaga keladigan ziddiyatli holatlarni hal qilish tartibini aniqlash;

–axborot xavfsizligi yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha bilimlar olish va mahoratni oshirish uchun ta'lim dasturlarini yaratish va shakllantirish, tegishli davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Paxrutdinov SH.I. Mustaqillik va jamiyat taraqqiyotiga tahdid muammosi(siyosiy tahlil tajribasi). Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -Toshkent – 1999 yil. -B. 22.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga ko'maklashish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 17 oktabrdagi 838-sonli qarori.

3. Rafikova, G. V. Mafkuraviy tahdidlar tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari // yosh olim. —2016. — № 3 (107). - S. 750-752.

4. Омельшин А.И. Психологические условия достижения и предупреждения внезапности в войнах и военных конфликтах // Дис... канд... психол... наук. – М., 1997. – С. 69.

5. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 2002 yil 12 dekabr 439-II-son qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2003. – №1. – 2-m.